O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“INVESTITSIYA VA INNOVATSIYALAR” KAFEDRASI

“YASHIL IQTISODIYOTDA INNOVATSION VA INVESTITSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

(2025 yil 24-25 oktabr)



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“INVESTITSIYA VA INNOVATSIYALAR” KAFEDRASI

“YASHIL IQTISODIYOTDA INNOVATSION VA INVESTITSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

(2025 yil 24-25 oktabr)

SAMARQAND 2025

МИНИСТЕРТСВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

САМАРКАНДСКИЙ ИНСТИТУТ ЭКОНОМИКИ И СЕРВИСА

КАФЕДРА “ИНВЕСТИЦИИ И ИННОВАЦИИ”

Материалы Республиканской научно-практической конференции на тему

“ИНВЕСТИЦИИ В ЗЕЛЕНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ: ПРОБЛЕМЫ И ВОЗМОЖНОСТИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ”

(24-25 октября 2025 г.)

САМАРКАНД – 2025

UO'K:330.322:330.15
B 49
KBK: 65.9(5O')-56

"Yashil iqtisodiyotda innovatsion va investitsion faoliyatni rivojlantirish: muammo va yechimlar". 2025-yil 24-25 oktabr, Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumani materiallari – Samarqand: SamISI, 2025 - 910 bet.

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi: assistent D.A.Miyassarov.

Nashr uchun mas'ullar:

A.Bektemirov - iqtisodiyot fanlari doktori, prof., N.H.Ruzibayeva - dotsent, PhD, A.A.Turayev - dots.v.b., PhD, A.A.Bekmurodov - dots.v.b., PhD, S.N.Baratov dots.v.b., PhD, B.M.Quliyev - dots.v.b., PhD, O.Y.Ashurova - katta o'qituvchi, G.T. D.F.Nasirov - katta o'qituvchi, G.T.Qarajanova - katta o'qituvchi, E.A.Nozimov - katta o'qituvchi, Z.X.Rafiyeva - assistent, G.A.Xolmirzayeva - assistent, M.S Qarshiyeva - assistent, Y.J.Xaknazarova - assistent, A.A.Axrorov - assistent.

Sahifalovchilar: O.Yu.Ashurova, A.A.Turayev, E.A.Nozimov, G.T.Qarajanova, Z.X.Rafiyeva, M.S Qarshiyeva, G.A.Xolmirzayeva,

"Yashil texnologiyalarga investitsiyalar: barqaror rivojlanish yo'lidagi muammolar va imkoniyatlar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallarida yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish tendensiyalari va strategiyalarini ishlab chqishga, energiya tejamkor va ekologik toza ishlab chiqarishda yashil texnologiyalar va ularni rivojlantirishga, yashil iqtisodiyotda investitsion va innovatsion faollikni oshirishdagi muammo va yechimlarga, yashil texnologiyalarni rivojlantirishda inson kapitali va uning sifatini oshirishga, yashil texnologiyalarni moliyalashtirish manbalari ko'lamini kengaytirish va samaradorligini oshirishning dolzarb masalalariga hamda bu yo'nalishdagi mavjud muammolarni aniqlashga va ularning yechimlariga bag'ishlangan ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarga boy maqola va ma'ruza tezislari o'rin olgan.

Ilmiy to'plam Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, talabalari, magistrlar, tayanch doktorantura, doktorantura, mustaqil izlanuvchilar va soha mutaxassislariga mo'ljallangan.

Maqolalar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan, raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas'ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to'g'ri kelmasligi mumkin.

ISBN: 978-9910-09-586-3

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2025

Abduhamidov Sarvar Adhamovich - *SamISI, Turizm kafedrasi mudiri, i.f.f.d., dotsent, "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti tadqiqochisi.*

MINTAQAVIY TURIZMDA YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARINI JORIY ETISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: maqolada yashil iqtisodiyot tamoyillarini mintaqaviy turizm sohasida amalga oshirish muhimligi ta'kidlangan va ularning o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Mintaqaviy turizmga yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning asosiy yo'nalishlari va ularning samaradorligi bo'yicha tahliliy ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, mintaqaviy turizm, barqaror rivojlanish, energiya tejaydigan texnologiyalar, ekoturizm, yashil investitsiyalar, raqamli boshqaruv, inson kapitali.

Bugungi kunda jahon miqyosida iqtisodiy taraqqiyotning yangi modeli sifatida "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. U nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlash, balki ekologik barqarorlikni mustahkamlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan tizimli yondashuv sifatida namoyon bo'lmoqda. Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va xalqaro maydondagi nufuzi ham bevosita yashil iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirish darajasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Mintaqaviy turizm sohasida ushbu tamoyillarni joriy etish barqaror rivojlanishning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Chunki turizm tarmog'i tabiiy muhit, madaniy meros va inson omillariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, "yashil turizm" yoki "ekoturizm" konsepsiyasini amaliyotga joriy etish orqali mintaqalarda ekologik barqarorlikni ta'minlash, turistik faoliyatdan kelib chiqadigan salbiy ta'sirlarni kamaytirish hamda mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

Ilmiy manbalarda yashil iqtisodiyot tushunchasiga oid turli yondashuvlar mavjud. Ayrim olimlar uni insonlar farovonligini oshirish bilan birga ijtimoiy adolatni ta'minlovchi tizim sifatida ta'riflasalar, boshqalar uni kam uglerodli, resurslardan samarali foydalanuvchi va inklyuziv iqtisodiy model sifatida izohlaydilar. Shu nuqtai nazardan, mintaqaviy turizm sohasida yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki turizm infratuzilmasini ekologik jihatdan muvozanatli rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Bugungi kunda mintaqaviy turizmni rivojlantirishda yashil texnologiyalardan foydalanish, energiya tejamkor va ekologik toza infratuzilmani yaratish, turistik ob'ektlarni boshqarishda axborot-kommunikatsiya yechimlarini joriy etish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu orqali nafaqat tabiiy muhit muhofazasi ta'minlanadi, balki turizm sektoridagi raqobatbardoshlik, investitsiyaviy jozibadorlik va xizmatlar sifatini oshirishga erishiladi.

Shuningdek, mintaqaviy darajada yashil iqtisodiyot prinsiplarini amalga oshirish turizm siyosatida yangi innovatsion modellar — "yashil brend", "barqaror destinatsiya" va "ekologik mas'uliyatli sayohat" kabi tushunchalarni shakllantirishni

taqozo etmoqda. Bu esa mamlakatning turistik salohiyatini oshirish bilan birga, xalqaro bozorda O‘zbekistonning barqaror turizm markazi sifatidagi imijini mustahkamlaydi.

Mintaqaviy turizm sohasida yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish – bugungi kunda barqaror rivojlanish siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Turizmning hududiy rivojlanishi faqat iqtisodiy o‘sish bilan cheklanib qolmay, balki ekologik barqarorlik, resurslardan tejamkor foydalanish va aholining turmush darajasini oshirishga ham yo‘naltirilishi zarur. Shu nuqtai nazardan, turizm infratuzilmasida “yashil” yondashuvni qo‘llash nafaqat atrof-muhit muhofazasiga, balki hududlarning investitsiyaviy va ijtimoiy jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Turizm faoliyatining ko‘p qirrali tabiati sababli, yashil iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirishda kompleks yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanish, ekologik toza infratuzilmani yaratish, raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish, inson kapitalini rivojlantirish va yashil investitsiyalar mexanizmlarini kengaytirish ustuvor vazifalar sifatida belgilanadi.

Mintaqaviy turizmda ushbu tamoyillarni amalga oshirish yo‘nalishlarini tizimlashtirish va ularning iqtisodiy hamda ekologik samaradorlik darajasini baholash maqsadida quyidagi jadval ishlab chiqildi. Unda yashil iqtisodiyot prinsiplarini turizm sohasiga tatbiq etishning asosiy yo‘nalishlari, amalga oshirish mazmuni, kutilayotgan natijalar va ilmiy-amaliy ahamiyati yoritilgan.

1-jadval.

Mintaqaviy turizmda yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish yo‘nalishlari va ularning ta’sir samarasi

№	Yo‘nalish nomi	Amalga oshirish mazmuni	Kutilayotgan natija	Ilmiy-amaliy ahamiyati
1	**Energiya tejamkor texnologiyalar**	Turizm infratuzilmasida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish	Turizm ob’ektlarining energiya sarfini kamaytirish, ekologik barqarorlikni ta’minlash	Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va zararli holatlarni qisqartirishga xizmat qiladi
2	**Ekologik toza infratuzilma**	Mehmonxona, transport va xizmat ko‘rsatish tarmoq-larida chiqindisiz va qayta ishlovchi texnologiyalar qo‘llash	Ifloslanish darajasini kamaytirish va hudud ekologik xolatini yaxshilash	Turizm faoliyatining ekologik zararini kamaytiradi, jozibador muhit yaratadi
3	**Axborot-kommunikatsiya yechimlari**	Geoaxborot tizimlari va raqamli boshqaruv platformalarini joriy	Turistik resurslarni samarali boshqarish va monitoring qilish	Yashil boshqaruvning innovatsion modelini

		etish		yaratadi
4	**Yashil investitsiyalar**	Davlat-xususiy sheriklik asosida ekoloyihalarni moliyalashtirish	Turizm infratuzilmasiga investitsiyaviy oqimlarni jalb etish	Mintaqaviy iqtisodiyotda investitsiyaviy faollikni oshiradi
5	**Inson kapitali rivoji**	Turizm sohasida ekologik bilim va yashil kompetensiya-larga ega kadrlar tayyorlash	Barqaror turizm madaniyatini shakllantirish	Turizmning inson omili orqali barqaror rivojlanishini ta’minlaydi

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, mintaqaviy turizm sohasida yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish ko‘p qirrali va tizimli yondashuvni talab qiladi. Xususan:

birinchidan, energiya tejamkor va ekologik toza texnologiyalarni amalga oshirish orqali turistik infratuzilmaning ekologik zararini kamaytirish mumkin. Bu nafaqat atrof-muhit muhofazasini ta’minlaydi, balki iqtisodiy barqarorlikni ham mustahkamlaydi;

ikkinchidan, axborot-kommunikatsiya yechimlari – turizmda raqamli boshqaruv va geoaxborot tizimlarini qo‘llash orqali resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Bu esa hududiy turizm siyosatini ilmiy asoslangan qarorlar orqali optimallashtirishga zamin yaratadi;

uchinchidan, yashil investitsiyalar va inson kapitali rivoji barqaror rivojlanishning asosiy drayverlari hisoblanadi. Turizm sohasidagi investitsion muhitni ekoloyihalarga yo‘naltirish, mahalliy aholi va kadrlar o‘rtasida ekologik bilimlarni chuqurlashtirish barqaror turizm madaniyatini shakllantiradi.

Shunday qilib, mintaqaviy turizmda yashil iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki hududning ekologik barqarorligi, ijtimoiy farovonlik va xalqaro turistik imijini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdukhamidov, S. A. "DISTINCTIVE FEATURES OF REGIONAL TOURISM DEVELOPMENT." Theoretical & Applied Science 4 (2019): 337-341.

2. Boltabayev, M. R., et al. "Turizm: nazariya va amaliyot: darslik." Toshkent: Fan va texnologiya (2018).

3. Mamatkulov, X. M., & Abdukhamidov, S. A. (2020). Tourism infrastructure. Education manual. S.: SamISI.

4. Abduhamidov, A. S., & Dustova, M. K. (2022). Turizm sohasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari. Builders of the future, 2(2), 282-287.

5. Makhmadieva, C., Turdibekov, K., Amiriddinova, M., Toyirova, S., Yuldosheva, L., Mahmudova, Z., … Sobirov, B. (2025). The impact of distance on

willingness to eat out: evidence from Samarkand, Uzbekistan. Jurnal Ilmiah Ilmu Terapan Universitas Jambi, 9(4), 1391–1402.

6. Иванова Н.И., Левченко Л.В. «Зеленая» экономика: сущность, принципы и перспективы // Вестник Омского университета. Серия «Экономика». 2017. № 2 (58). С. 19–28.

7. Мишулина С.И. Факторы развития «зеленого» туризма // Современные проблемы сервиса и туризма. 2017. Том 11. № 4. С. 27–37.

8. Порфирьев Б. «Зеленая» экономика: реалии, перспективы и пределы роста // Фонд Карнеги за международный мир. URL: http://carnegieendowment.org/fi les/WP_Porfi riev_ web.pdf.

Sobirov I.X. – ***Sam DAQU, "Iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti, if.n.***
Xomidova Muborak - ***Sam DAQU, magistrant.***

KO'CHMAS MULKNI BOZOR QIYMATIDA BAHOLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat byudjeti daromadlari bazasini kengaytirishda ko'chmas mulklarning iqtisodiy axamiyati, ko'chmas mulkka soliq solish mulkning rakobatbardoshligini oshirib, soliq solish bazasini belgilashdagi mukim o'ringa ega ekanligi xaqidagi qarashlar taxliliy asoslanib, tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit suzlar: mahalliy soliq, mulkning bozor qiymati, ko'chmas mulk, kadastr qiymati, shaxsiy kartochka, soliq elementlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli Farmoniga asosan maxalliy byudjetlar daromadlari bazasini kengaytirish masalalari yoritib berilgan asosiy xujjatlardan biri xisoblanadi .

Unda quyida keltirilgan dolzarb yunalishidagi masalalarni xal etish belgilab berilgan.

- xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganini saqlab qolgan holda Davlat byudjetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash, maxalliy byudjetlarning daromad kismini mustaxkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish;
- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish uchun xar bir xududning tabiiy, mineral- xomashyo, sanoat, kishlok xo'jaligi, turistik va mexnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta'minlash;

Ushbu vazifalarni amalga oshirilishi natijasida tarmoqlar va mintaqalarni barqaror rivojlanishi ta'minlanib maxalliy byudjetlarning daromad manbai oshadi.

O'zbekistan Respublikasi Prezidenta SH.M.Mirziyoevning 2018 yil 29 iyunda «O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish

Khalikova L.N. Ashurova Jasmina Jo'ra Qizi	FOOD SAFETY: ITS ECONOMIC SIGNIFICANCE AND THE PROBLEMS OF ENSURING IT	331-336
Abduhamidov Sarvar Adhamovich	MINTAQAVIY TURIZMDA YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARINI JORIY ETISH XUSUSIYATLARI	336-339
Sobirov I.X.	KO‘CHMAS MULKNI BOZOR QIYMATIDA BAHOLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	339-344
Собиров Илхом Хусанович Джураева Махзуна	ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИИ В СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА	344-347
Mamatkulova Nodira Maxkamovna	O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHDAGI INVESTITSION JOZIBADORLIK	347-350
Muradova N.U Abdullaev X.A	REAL SEKTOR KORXONALAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH CHORA TADBIRLARI	350-355
Berdimurodov Azizjon Shukrilloyevich Xamroyeva Sitora Otabekovna	TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION JARAYONLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LIDA YASHIL TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI	355-358
Жўраев Беҳзод Нуралиеивич	ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШ ЙЎЛЛАРИ	358-363
Komilova Mukammal Shavkatovna Rayimov Ma’rufjon Abdurashid O‘g‘li	INVESTITSIYA – IQTISODIY RIVOJLANISHNING ASOSIY DRAYVERI	363-367
A.A.Siddiqov Ismatillayev Bekjon Nizom O‘G‘Li	MEHMONXONA VA RESTORAN MENIJMENTIDA TAYYOR MAHSULOT SIFATINI NAZORAT QILISH HAMDA SAQLASH MUDDATLARINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY	367-370